

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107



PRESS - RELIZ

APREL
2026



MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	5
Birja savdolari sharhi	6
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	7
Emitentlarning bozor kapitalizatsiyasi	9
UCI indeksi	9
Top-10 aksiyalar Main Board bo'yicha	10
Narxlarning o'zgarishi	11
Obligatsiyalar bozori	13
Tarmoq tuzilmasi	14
Birja kotirovkalash varag'i	15
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI	17
LTSM savdolari sharhi	18
Main Board bo'yicha LTSM aksiyalar Top-10 ro'yxati	19
DISKLEYMER	21

SAVDO YAKUNLARI

- Oy yakunlariga ko'ra, savdolarning umumiy hajmi **1,79 trln so'm (\$148,91 mln)**ni tashkil etib, 2026-yil mart oyiga nisbatan **1,15 trln so'mga yoki 180 foizga** ga oshdi. Ushbu hajmdan **303,56 mlrd so'm (\$25,13 mln)** birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Savdo hajmining qolgan qismi tashkil etilgan birjadan tashqari bozorda (listingdan tashqari savdo maydonchasi, LTSM) bo'lgan bitimlarga to'g'ri keldi.
- Bitimlarning umumiy soni **89 882** tani tashkil etib, 2026-yil mart oyiga nisbatan **25 932 ta bitimga yoki 40,55 foizga** oshdi. Shundan **74 484 ta bitim** birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, **15 398 ta bitim** esa tashkil etilgan birjadan tashqari bozorda amalga oshirildi.
- Savdolarning o'rtacha kunlik hajmi **81,41 mlrd so'm (\$6,77 mln)**ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa **4 086 tani** tashkil etdi.
- Savdoda ishtirok etgan qimmatli qog'ozlarning umumiy hajmi **27,40 mlrd donani** tashkil qilib, ulardan **7,88 mlrd dona** listing maydonchalariga to'g'ri keldi.
- Savdolarida ishtirok etgan emitentlar **soni 203 taga** yetdi.
- Savdo qilingan instrumentlar **soni 245 tani** tashkil etdi.
- Hisobot davrida savdolar **22 ta savdo kuni** davomida o'tkazildi.

2026-YIL APREL OYIDAGI BITIMLAR SONI VA HAJMI (MLRD SO'M)

Milliardlarda



**APREL
2026**



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI



BIRJA SAVDOLARI SHARHI

Oy davomida “Toshkent” RFB birja kotirovkalash varag’iga kiritilgan 68 ta emitentning qimmatli qog’ozlari bilan 7,88 mlrd dona qimmatli qog’ozlar savdosi amalga oshirilib, umumiy qiymati 303,56 mlrd so’m (\$25,13 mln) bo’lgan 74 484 ta bitim tuzildi.

Eng yuqori savdo hajmi 29-aprel kuni qayd etilib, 132,60 mlrd so’mni tashkil etdi. Bu ko’rsatkich oy davomida amalga oshirilgan jami savdo hajmining 43,68 foiziga teng bo’ldi.

Shu kuni eng yirik bitimlar “InFinBank” AJning /INFB/ obligatsiyalari bilan tuzilib, ularning umumiy qiymati 130,49 mlrd so’mni tashkil etdi.

Mazkur bitimlar 29-aprel kuni amalga oshirilgan jami savdolar hajmining 98,40 foiziga to’g’ri keldi.


Eng past savdo hajmi 8-aprel kuni qayd etilib, ushbu kunda umumiy qiymati 433,57 mln so’mlik 2 917 ta bitim amalga oshirildi.

Aprel oyida birja kotirovkalash varag’idagi qimmatli qog’ozlar bilan tuzilgan bitimlarning o’rtacha kunlik soni 3 386 tani, savdolarining o’rtacha kunlik hajmi esa 13,80 mlrd so’mni tashkil etdi.

Tuzilgan bitimlar hajmi va soni o’tgan oy bilan taqqoslaganda, bitimlar soni 41,84 foizga oshgan bo’lsa, savdo hajmi 45,08 foizga kamaydi.

APREL OYIDAGI SAVDOLAR HAJMI VA BITIMLAR SONI

Milliardlarda



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

Hisobot davrida eng yuqori savdo faolligi «Stock Market» savdo maydonchasida kuzatildi. Ushbu maydonchada 60 ta emitent ishtirok etib, jami 72 567 ta bitim amalga oshirildi. Savdolarning umumiy hajmi 179,36 mlrd so'mni tashkil etdi.

N ^o	Savdo tizimi bo'limlari	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi (so'm)
I.	«Stock Market»:	60	72 567	7 883 668 366	179 362 982 163,04
1.	«Main Board»	57	72 559	7 747 755 811	23 557 040 737,59
2.	«Nego Board»	4	4	5 425 381	25 318 767 425,45
3.	«FoP Board»	1	4	130 487 174	130 487 174 000,00
II.	«Bond Market»	8	1 917	217 921	124 199 543 692,00
1.	G1 - «Main Board»	8	1 917	217 921	124 199 543 692,00
JAMI		68	74 484	7 883 886 287	303 562 525 855,04

«Stock Market» tarkibida operatsiyalarning asosiy ulushi «Main Board» maydonchasiga to'g'ri kelib, unda 57 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bilan 23,56 mlrd so'mlik 72 559 ta bitim amalga oshirildi.

Shu bilan birga, alohida maydonchalar kesimida eng yirik savdo hajmi «FoP Board»da qayd etildi. Mazkur maydonchada umumiy qiymati 130,49 mlrd so'mlik bitimlar amalga oshirilib, bu aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 72,75 foizini tashkil etdi. Shunga qaramay, bitimlar soni atigi 4 tani tashkil etdi.

«Bond Market» maydonchasida savdo faolligi nisbatan past bo'lib, 8 ta emitent ishtirokida 1 917 ta bitim amalga oshirildi. Bu ko'rsatkich «Stock Market» maydonchasiga nisbatan qariyb 37 baravar kam bo'ldi.


Shu bilan birga, ushbu maydonchadagi savdolar hajmi 124,20 mlrd so'mni yoki aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 40,91 foizini tashkil etdi. Bu esa qarz instrumentlari bozorida bitimlarning o'rtacha hajmi yuqoriligi hamda kapitalning yirik hajmlarda jamlanganini ko'rsatadi.

AKSIYALAR BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	95 067	65 379	19 664	19 401	179 363
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	4 527	3 632	983	882	8 153
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	13	2,9	0,6	0,7	2
Bitimlar soni	dona	7 429	22 257	35 956	27 797	72 567
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	354	1 237	1 798	1 264	3 299

BOZORLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI

UZSE Bond
40,91%



UZSE Stock
59,09%


EMITENTLARNING BOZOR KAPITALIZATSIYASI

Aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi 2,75 trln so'mga yoki 1 foizga oshib, 342,69 trln so'm (\$28,62 mlrd)ni tashkil etdi, erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning bozor kapitalizatsiyasi (free-float) esa 6,56 trln so'm (\$548,12 mln)ni tashkil qildi.

UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 0,1 foizga kamayib, 890,53 punkt darajasida yopildi. Indeksning maksimal qiymati 16-aprel kuni qayd etilib, 957,93 punktga yetdi. Indeksning oy davomidagi minimal qiymati 2-aprel kuni qayd etilib, 889,51 punktni tashkil qildi.


2026-YIL APREL OYIDAGI UCI INDEKSI GRAFIGI



TOP-10 AKSIYALAR MAIN BOARD BO'YICHA


2026-yil aprel oyi yakunlariga ko'ra, aksiyalar bozorining asosiy savdo maydonchasi — G1 «Main Board»da jami 23,56 mlrd so'mlik 72 559 ta bitim amalga oshirildi.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10



Hisobot davrida eng ko'p bitimlar «Chilonzor buyum savdo kompleksi» AJning /CBSK/ hamda ATB «Hamkorbank»ning /HMKB/ qimmatli qog'ozlari bilan tuzilib, ular soni mos ravishda 8 335 ta va 5 438 tani tashkil etdi. Top-10 ro'yxatining quyi pog'onalaridan «Qizilqumsegment» AJning /QZSM/ oddiy aksiyalari va «IPOTEKA-BANK» ATIBning /IPTBP/ imtiyozli aksiyalari o'rin oldi. Mazkur qimmatli qog'ozlar bilan mos ravishda 2 769 ta va 2 278 ta bitim amalga oshirildi.

SAVDOLAR HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Eng yuqori savdo hajmi «O'zRTXB» AJning /URTS/ va ATB «Hamkorbank»ning /HMKB/ aksiyalari bilan qayd etilib, mos ravishda 6 635,45 mln so'm va 6 357,67 mln so'mni tashkil etdi. Top-10 ro'yxatining quyi pog'onalaridan «Qizilqumsegment» AJning /QZSM/ hamda «IPOTEKA-BANK» ATIBning /IPTBP/ qimmatli qog'ozlari o'rin oldi. Ular bilan tuzilgan bitimlar hajmi mos ravishda 384,95 mln so'm va 323,63 mln so'mni tashkil qildi. Shu bilan birga, «Main Board» savdo maydonchasida qimmatli qog'ozlari savdo qilingan Top-10 emitentning umumiy savdo hajmi 20,21 mlrd so'mni yoki aksiyalar bozori umumiy savdo hajmining 85,77 foizini tashkil etdi.

NARXLARNING O'ZGARISHI

Oy davomida aksiyalar narxi –40,00 foizdan 137,50 foizgacha o'zgardi. Eng yuqori o'sish «O'zbektelekom» AJning oddiy /UZTL/ va imtiyozli /UZTLP/ aksiyalari kuzatildi. Mazkur qimmatli qog'ozlarning qiymati mos ravishda 5 700,00 so'm va 4 743,00 so'mgacha yetdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 31.03.2026	Yopilish narxi 30.04.2026	O'zgarish %
UZTL	AJ "O'zbektelekom"	2 400,00	5 700,00	137,50%
UZTLP	AJ "O'zbektelekom"	2 033,33	4 743,00	133,26%
AGMKP	AJ "Olmaliq KMK"	10 300,00	16 000,00	55,34%
ALKB	ATB "Aloqabank"	0,69	1,01	46,38%
METQ	AJ "Maxsuselektrtarmoqqurilish"	19 200,00	28 000,00	45,83%
SANE	AJ «Sarbon neftgaz»	9 350,00	13 000,00	39,04%
UZGFP	AJ "O'zbekgeofizika"	640	843	31,72%
GRBK	AJ "GARANT BANK"	510	650	27,45%
UNVB	ATB "Universal bank"	9 997,00	12 738,00	27,42%
UTGAP	AJ "O'ztransgaz"	7 400,00	9 000,00	21,62%

Shu bilan birga, "Kapital sug'urta" AJ /KASUP/ va ATIB "Ipoteka-bank" / IPTB/ aksiyalari eng katta pasayishni ko'rsatib, hisobot davrini mos ravishda 0,15 so'm va 2,78 so'm darajasida yakunladi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 31.03.2026	Yopilish narxi 30.04.2026	O'zgarish %
KASUP	AJ "Kapital sug'urta"	0,25	0,15	-40,00%
IPTB	ATIB "Ipoteka-bank"	3,81	2,78	-27,03%
TRSBP	XAB "Trastbank"	250 000,00	200 000,00	-20,00%
UQEQ	AJ "O'zqishloqelektrqurilish"	35 000,00	28 000,00	-20,00%
UZASP	AJ "O'zagrosug'urta"	13 600,00	10 888,01	-19,94%
QZSM	AJ "Qizilqumsement"	1 490,02	1 200,00	-19,46%
NGQS	AJ "Neft va gaz quduqlarini sinash"	18 000,00	15 000,00	-16,67%
CBSK	AJ "Chilonzor buyum savdo kompleksi"	3,7	3,11	-15,95%
BTRL	AJ "Boshtransloyiha"	10 500,00	9 000,00	-14,29%
TKDMP	AJ "TDM"	4 000,00	3 499,55	-12,51%

OBLIGATSIYALAR BOZORI


Hisobot davri yakuniga ko'ra, «Bond Market» savdo maydonchasida umumiy qiymati 124,20 mlrd so'mlik 1 917 ta bitim amalga oshirildi. Eng yuqori savdo hajmi 3-aprel kuni qayd etilib, 101,99 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mazkur kunda «UzMRC» AJning /IQMK5B8/ obligatsiyalari bilan «Bond Market» maydonchasida umumiy qiymati 101,92 mlrd so'mlik 1 ta bitim tuzildi. Ushbu bitim hisobot davrida obligatsiyalar bozori umumiy savdo hajmining 82,06 foiziga to'g'ri keldi.

Obligatsiyalarning bozor qiymati 520,36 mlrd so'mga yoki 12,76 foizga oshib, 4,60 trln so'mni (\$383,95 mln) tashkil etdi.

Muomaladagi instrumentlar soni 31 taga yetdi. Hisobot davrida «UZUM SARMOYA» MCHJning /UZUMS3B/ obligatsiyalari birja kotirovkalash varag'iga kiritildi.

INSTRUMENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN SAVDOLAR HAJMINING ULUSHI, %




OBLIGATSIYALAR BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mIn so'm	40	64 826	1 329	94 524	124 200
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mIn so'm	2	3 601	66	4 297	5 645
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mIn so'm	40	1 852	11	68	65
Bitimlar soni	dona	1	35	118	1 385	1 917
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	1	2	6	63	87

TARMOQ TUZILMASI

Oy davomida "Toshkent" RFBda iqtisodiyotning 14 ta tarmog'iga mansub emitentlarning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlari bilan bitimlar amalga oshirildi.

2026-YIL APREL OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR HAJMI, %



Banklar 46,45%	Moliyaviy xizmatlar 38,79%	Mashinasozlik 7,64%	Boshqalar 4,31%
Sanoat 1,44%	Aloqa 0,49%	Energetika 0,32%	Ko'chmas mulk 0,25%
Sug'urta 0,19%	Transport 0,07%	Qurilish 0,03%	Farmatsevtika 0,02%
Agrosanoat 0,01%	Lizing 0,00%		


Bitimlarning eng katta hajmi «Banklar» tarmog'iga to'g'ri kelib, ushbu sektorda 141,01 mlrd so'mlik 31 672 ta bitim tuzildi. Bu jami bitimlar hajmining 46,45 foizini tashkil etdi.

Keyingi o'rinda «Moliyaviy xizmatlar» tarmog'i qayd etilib, ushbu sektordagi savdolar hajmi 117,75 mlrd so'mni yoki umumiy savdo hajmining 38,79 foizini tashkil etdi. Mazkur ikki tarmoqning jami ulushi bozor umumiy savdo hajmining 85 foizidan oshdi. Eng past ko'rsatkich esa lizing sektorida qayd etilib, unda umumiy qiymati 462,61 ming so'mlik 42 ta bitim amalga oshirildi.

Eng ko'p bitimlar «Banklar» tarmog'i qimmatli qog'ozlari bilan tuzilib, ularning soni 31 672 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni «Sanoat» va «Sug'urta» tarmoqlari egalladi. Mazkur tarmoqlar qimmatli qog'ozlari bilan mos ravishda 4,38 mlrd so'mlik 9 360 ta hamda 577,28 mln so'mlik 8 883 ta bitim qayd etildi.

Eng past bitim faolligi «Qurilish» va «Lizing» tarmoqlari qimmatli qog'ozlarida kuzatilib, bitimlar soni mos ravishda 206 ta va 42 tani tashkil etdi.


2026-YIL APREL OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA BITIMLAR SONI, DONA



BIRJA KOTIROVKALASH VARAG'I

Oy oxiridagi holatga ko'ra, "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'ida 95 ta emitentning 152 ta instrumenti mavjud bo'ldi.

KATEGORIYALAR KESIMIDAGI INSTRUMENTLAR



Shundan:

- 83 — oddiy aksiyalar;
- 38 — imtiyozli aksiyalar;
- 31 — obligatsiyalar.

Hisobot davrida birja kotirovkalash varag'iga «UZUM SARMOYA» MCHJning /UZUMS3B/ obligatsiyalari kiritildi.

«Stock Market» savdo maydonchasida bitimlarning eng katta soni «Standart» segmentida qayd etilib, unda 16,18 mlrd so'mlik 60 942 ta bitim amalga oshirildi. Eng past bitim faolligi «Tranzit» segmentida kuzatilib, ushbu segmentda 25,49 mlrd so'mlik 1 788 ta bitim tuzildi. Eng yuqori savdo hajmi esa «Xususiyashtirish» segmentida qayd etilib, 4 618 ta bitimning umumiy qiymati 131,06 mlrd so'mni tashkil etdi.

«Premium» toifasida bitta emitent — «O'zRTXB» AJ ishtirok etdi. Ushbu emitentning qimmatli qog'ozlari bilan jami 6,64 mlrd so'mlik 5 219 ta bitim amalga oshirildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI



**APREL
2026**

LTSM SAVDOLARI SHARHI

Savdolar hajmi 1,49 trln so'mni (\$123,78 mln) tashkil etib, o'tgan oyga nisbatan 1,40 trln so'mga oshdi. Savdolarning asosiy qismi «SME Stock» bozorining «FoP Board» platformasiga to'g'ri kelib, ushbu segmentdagi bitimlar hajmi 1,40 trln so'mni yoki aprel oyidagi jami savdolar hajmining 93,96 foizini tashkil etdi.


Eng yuqori savdo hajmi 30-aprel kuni qayd etilib, 1,17 trln so'mni (\$97,85 mln) tashkil etdi. Eng past savdo hajmi esa 8-aprel kuni kuzatilib, 19,72 mln so'mni (\$1 616) tashkil qildi.

Bitimlarning umumiy soni 15 398 tani tashkil etdi. Eng ko'p bitimlar 20-aprel kuni qayd etilib, ularning soni 1 137 tani tashkil etdi. Eng kam bitimlar soni esa 2-aprel kuni kuzatilib, 455 taga teng bo'ldi.


Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 67,61 mlrd so'm (\$5,63 mln)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 700 tani tashkil etdi.

LTSM BITIMLAR HAJMI, MLRD SO'M

Milliardlarda



LTSM BITIMLAR SONI




LTSM ASOSIY KO'RSATKICHLARI

N°	Savdo maydonchasi	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Savdo hajmi (so'm)
I.	«SME Stock»:	135	15 398	19 513 358 221	1 487 511 765 728,94
1.	«Main Board»	128	15 263	263 006 314	10 035 930 191,13
2.	«Nego Board»	6	121	5 608 421 387	79 883 535 552,61
3.	«FoP Board»	4	14	13 641 930 520	1 397 592 299 985,20

MAIN BOARD BO'YICHA LTSM AKSIYALAR TOP-10 RO'YXATI

«SME Stock» aksiyalari bozorida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha G1 — «Main Board» maydonchasidagi aksiyalarning Top-10 ro'yxati.


BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP-10



Eng ko'p bitimlar «Uzsanoateksport» AJning /OSNE/ aksiyalari bilan tuzilib, ularning soni 1 743 tani tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni «UZPARTA'MINOT» AJ /UZPT/ hamda «QO'QON MEXANIKA ZAVODI» AJ /OKUM/ egallab, ushbu aksiyalar bilan mos ravishda 1 702 ta va 944 ta bitim amalga oshirildi. Top-10 ro'yxatining quyi pog'onalaridan «Kogon yog'-ekstraksiya zavodi» AJ /OKYZ/ va «Foykon» AJ /OFKN/ aksiyalari o'rin oldi. Ular bilan mos ravishda 480 ta va 409 ta bitim tuzildi. Bitimlarning eng katta hajmi «BEST PIPE AND PARTS»

AJning /OUSW/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilib, 6 265,88 mln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich «Main Board» aksiyalari bozori umumiy savdo hajmining 62,43 foiziga teng bo'ldi. Keyingi o'rinlarni «DUNYO-M» AJ /ODNM/ hamda «UZPARTA'MINOT» AJ /UZPT/ egallab, ushbu emitentlarning oddiy aksiyalari bilan mos ravishda 2 754,85 mln so'mlik va 157,41 mln so'mlik bitimlar amalga oshirildi. Top-10 ro'yxatining quyi pog'onasidan «Uzkimyofarm» AJning /OKFM/ aksiyalari o'rin oldi. Mazkur aksiyalar bilan jami 45,49 mln so'mlik bitimlar tuzildi.

SAVDOLAR HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Savdo hajmi bo'yicha Top-10 aksiyalarning umumiy qiymati 9,62 mlrd so'mni tashkil etib, bu ushbu segment umumiy savdo hajmining 95,85 foiziga teng bo'ldi.

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300